

11-SINF

1-MAVZU.

SENTYABR – “MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

(4-hafta)



1-keys. “Men mamlakat taraqqiyotiga qanday hissa qo‘sha olaman?”



Vaziyat:

Bitiruvchi o‘quvchi Sardor oliy ta‘limga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida:

“Mening bo‘lajak kasbim, oladigan bilimim va fuqarolik pozitsiyam Yangi O‘zbekistonning kelajakdagi qiyofasini belgilaydi”, –
degan xulosaga keldi.



Savollar:

- 1 Bitiruvchining kasbiy tanlovi va fuqarolik mas‘uliyati mamlakat rivojiga qanday ta‘sir qiladi?
- 2 Vatanga xizmat qilish va uning taraqqiyotiga hissa qo‘shish deganda nimani tushunasiz?
- 3 Kelajakdagi O‘zbekistonni dunyoning yetakhi davlatlari sirasiga olib chiqish uchun bitiruvchi yoshlar nima qilishi kerak?



Qiziqarli topshiriq:

“Men mamlakat taraqqiyotiga qanday hissa qo‘sha olaman?” mavzusida bilim, kasb hamda fuqarolik mas‘uliyatini yorituvchi qisqa tahliliy esse yozing.



11-SINF

1-MAVZU. SENTYABR — "MUSTAQILLIK VA O'ZBEKISTON YO'LI" (4-hafta)



2-keys. Kelajakdagi O'zbekiston: Qadriyatlar va raqamli sivilizatsiya



Vaziyat:

Bitiruvchilar o'rtasida kechgan bahsda Nigora kelajakdagi O'zbekiston faqatgina yuqori texnologiyalar, osmon o'par bino va aqlli shaharlar bilan emas, balki milliy o'zlik, madaniy qadriyatlar va adolatli jamiyat bilan kuchli bo'lishini isbotlab berdi.



Savollar:

- 1 Kelajakdagi O'zbekiston qiyofasida milliy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalar muvozanati qanday ta'minlanadi?
- 2 Globallashuv davrida milliy o'zlik va vatanparvarlikni saqlab qolish nega muhim?
- 3 Kelajak jamiyatida har bir fuqaroning shaxsiy mas'uliyati nimadan iborat bo'ladi?



Qiziqarli topshiriq

"Kelajakdagi O'zbekiston qiyofasi va mening qarashlarim" mavzusida 1 sahifalik tahliliy taqdimot rejasini shakllantiring.

